

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## TIL BILAN MADANIYATNING O'ZARO MUNOSABATI

Hoshimova Marjona

Pirmuhammedova Zarina

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada til bilan madaniyatning o'zaro munosabati haqida fikr yuritilgan. Til bilan madaniyatning o'zaro munosabati xususida gapirganda “madaniyat” tushunchasi xususida batafsil to'xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud. Masalan, G.V.Yelizarova “madaniyat” tushunchasini intuitiv jihatdan shaffof bo'lib tuyuladigan aksiomatik tushunchalar qatoriga kiritadi. Biroq bunday kompleks tushunchaga ta'rif keltirish nihoyatda murakkab holdir. Madaniyatning “Madaniyat – bu bizning bu yerda qanday yashashimizdir” kabi qaysidir bir jihatga to'xtalmasdan ushbu tushunchaning barcha qirralarini qamrab olishga intiladigan ta'riflar ham mavjud.

**Kalit so'zlar:** til, mantiq, tafakkur, madaniyat, jamiyat, lingvomadaniyat.

“Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir” F. de. Sossyur.

Madaniyat ta'rifiga oid boshlang'ich yondashuv madaniyat bu barcha jamiyatlarga xos bo'lgan gomogen holatdir, degan tasavvurga asoslangan. Jamiyatdagi tafovutlar ularning mohiyati, mazmunidagi farqlar sifatida emas, balki ayni bir holat - madaniyatning ravnaqi darajasidagi tafovutlar sifatida talqin etilgan. Yovvoyilikdan sivilizatsiyaga tomon taraqqiyot o'lchov mezoni bo'lib xizmat qilgan. Jamiyat o'z tasarrufida sivilizatsiyaning qanchalik ko'proq belgilariga ega bo'lsa, u madaniy jihatdan shunchalik ko'p taraqqiy etgan deb hisoblangan. Biz E.Teylor asarlarida madaniyatni tushunishga nisbatan shunday yondashuvning eng yorqin ifodasini uchratamiz. Uning ancha keng tarqalgan madaniyat ta'rifi madaniyatni bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlar va insonning jamiyat a'zosi sifatida orttiradigan boshqa har qanday belgilari va odatlarini o'z ichiga oladigan yaxlit kompleks hodisa sifatida ifodalaydi. Lekin bunday nuqtai nazar bilan kelishish qiyin: sivilizatsiya va madaniyat – bir-biridan

ancha farq qiladigan tushunchalardir. Bir holatni boshqa bir holat orqali baholash mumkin emas, chunki ushbu har ikkala tushuncha turlicha ma'noli hollarga tegishlidir.

XIX asr oxirida F.Boasning antropologik tadqiqotlari boshlanishi bilan "madaniyat" atamasi turli jamiyatlarga nisbatan ham qo'llana boshlandi. Madaniyatga nisbatan qarashlarning bunday modifikatsiyasi tilning qanday ahamiyat kasb eta borishi jihatidan juda muhim hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab til va madaniyat uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

A.Vejbitskaya, madaniyatning Klifford Gerts taklif qilgan ayniqsa samarali bir ta'rifini keltiradi. Unda aytilishicha, madaniyat – bu ramzlarda mujassamlashgan mohiyatlarining tarixiy jihatdan shakllanadigan modelidir. Bu meros qoldiriladigan tasavvurlar tizimi bo'lib, ular yordamida odamlar o'zaro bir-biri bilan muloqotda bo'lishadi va ularning hayot haqidagi bilimlari hamda hayotiy qoidalari shu tasavvurlar asosida qayd qilinadi va rivoj topadi

E.Sepir madaniyatni mazkur jamiyatning ish yuritishi va fikrlashi uchun asos bo'ladigan narsa sifatida ta'riflagan.

Ishga solingan tarkibiy qismlar, o'rganish maqsadlari va fan, madaniyatning turli sohalaridagi tadqiqotchilar mansub bo'lgan maktablarga qarab madaniyatning mazmuni va tuzilishi turlicha talqin qilingan.

Madaniyat ta'rifiga nisbatan ijtimoiy yondashuv ushbu holatning tabiat, alohida shaxs bilan cheklanib qolmaydigan, balki muloqot qilib turadigan odamlar guruhiga xos bo'lgan biologik va fiziologik jihatlardan tamomila o'zgacha holat tarzida ko'rib chiqilishiga asoslanadi.

Madaniyat ta'rifiga nisbatan kognitiv yondashuv shundan iboratki, madaniyat shaxs tomonidan o'zlashtira borilishi bilan fikriy voqeliklar, tuzilmalar va jarayonlar atamalarida ko'rib chiqilishi mumkin. Madaniyat tushunchasiga nisbatan bunday yondashuv madaniyatga bilim va bilish jarayoni sifatida alohida e'tibor beradi va kognitiv deb ataladi (V.Gudenaf).

Semiotik yondashuv madaniyatning, birinchi navbatda, dunyo in'ikosining keyinchalik muloqot vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan belgilar tizimi sifatida tushunishga asoslanadi (K.Levi-Stross). Lekin keltirilgan ta'riflarning hech birini to'laqonli deb bo'lmaydi, chunki ular madaniyatning ko'p qirrali tomonlarining faqat bir jihatini ochib beradi, ular madaniyatga nisbatan "yondashish" bilan cheklanadi va uni yaxlit holda ko'rib chiqmaydi. M.K.Mamardashvili va A.M.Pyatigorskiylar qayd qilishadiki, "madaniyat – bu obyektiv tarzda yo'naltirilgan fikrlash avtomatizmini joriy qiladigan hodisadir".

Barcha madaniyat tadqiqotchilari qaysi aniq ilmiy maktabga mansubligidan qat'i nazar tilning ushbu murakkab holat tuzilmasidagi alohida rolini e'tirof etishadi. E.Sepirning yozishicha: "Til madaniyatning to'planishi va uning tarixan meros qoldirilishida katta rol o'ynashi shubhasiz. Bu madaniyatning eng yuksak darajalari va uning sodda shakllariga ham birdek tegishlidir. Eng sodda jamiyat madaniyat fondining katta qismi ko'proq yoki kamroq aniqlik bilan belgilangan til shaklida saqlanib qoladi" "Eng sodda madaniyat" atamasining qo'llanilishi savol tug'dirishi mumkin. Bizning fikrimizcha, har hil madaniyatlar amal qiladi-yu, lekin aslo "eng sodda" yoki "rivoj topgan" madaniyatlar bo'lmaydi. Z.K.Tarlanovning qayd qilishicha, "Til – bu kommunikatsiyaning oddiy bir shakli va oddiy vositasi emas, bu yana mutlaqo yahlit mustaqil bir olam bo'lib, uning qonun va qoidalari o'z mohiyatiga ko'ra til vositasida ifodalansada, til sohiblarining ijtimoiy psixologiyasi va ular yaratadigan madaniyat tipi hamda tarkibi bilan g'oyat nozik bog'langan bo'ladi. Etnomadaniyat etnik tilsiz yoki umuman bo'lmaydi, yoki mavjud bo'lsa ham, ishonchga sazovor emas, chunki etnos faqat o'z tili orqaligina to'liq va keng miqyosda, o'zini betakror namoyon etadi. Boshqa tomondan olganda, etnik madaniyat, etnik dunyoqarash va bilish faoliyati tajribasidan ajralib qolgan til o'zining teran mohiyatini yo'qotadi va bu bilan oddiy muloqot vositalaridan biriga aylanadi"

Til bilan madaniyatning o'zaro munosabatlarini talqin etish nihoyatda murakkab ish. Til, tafakkur, madaniyat – bular har doim harakatda, o'zgarishda bo'ladigan hodisalardir. Ularni o'rganish uchun ularni to'xtashish zarur, lekin bu

endi o'sha "til", "tafakkur", "madaniyat" bo'lmaydi, to'g'rirog'i, ularning o'zi bo'lmaydi: ular o'lik holda, harakatsiz, bir biridan ajralgan holda qoladi.

"Til – odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir". B.Grosse

Qaysi narsaning birlamchi bo'lganligini belgilash mumkin emas, biroq shunisi haqiqatki, tilsiz etnos bo'lmaydi, til o'lishi hamon etnos ham, madaniyat ham barbod bo'ladi.

Har qanday madaniyatning yemirilishi, har doim aynan bir yo'l - madaniyat elementlarining izolyatsiyalanishi yo'li bilan sodir bo'ladi, ya'ni, turmush sharoitlari o'zgarishi natijasida simvolizm hayotni tark etganida madaniyatning ajralib qolgan elementi sifatidagi til ham shu asnoda halok bo'lgan.

Shunday qilib, til, tafakkur va madaniyat o'zaro shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, amalda ular uchta tarkibiy qismdan iborat yaxlitlikni tashkil qiladiki, bu tarkibiy qismlarning hech biri boshqa ikkita tarkibiy qimsiz faoliyat yuritishi (binobarin, amal qilishi) mumkin emas. Ularning hammasi birgalikda atrofdagi olam bilan o'zaro nisbatda bo'ladi, uni aks ettiradi va ayni bir vaqtda shakllantiradi. Bunda ular dunyo manzaralari deb ataladigan hodisalarni hosil qiladi.

#### ADABIYOTLAR

M.T.Irusqulov. Tilshunoslikka kirish

Z. T. Xolmanova. Tilshunoslikka kirish

Z. Xolmatova. Tilshunoslik nazariyasi

O'lmas SHaripov Ibrohim Yo'ldoshev Tilshunoslik asoslari